



## 93. Doiraning ulushlari

**Yondosh mavzu:**  
pazandachilik san'ati.


Doira, aylana, radius, diametr,  
sektor, doira qismi.




1. Aziza kivi mevasini bo'laklarga bo'ldi. U har bir holda mevani necha bo'lakka bo'lgan?



Ulushlar o'z nomiga ega.




Butun




Yarim.  
Ikkidan bir  
ulush

$$\frac{1}{2}$$



Uchdan bir.  
Uchdan bir  
ulush

$$\frac{1}{3}$$








Chorak.  
To'rtidan bir  
ulush

$$\frac{1}{4}$$



2. Rasmlar bo'yicha ulushlar nomini yozing.




### 93. Doiraning ulushlari



3. Uchta bir xil doira chizing.

- a) birinchi doirani ikkita teng bo'lakka bo'lib, yarmini bo'yang.
- b) ikkinchi doirani to'rtta teng bo'lakka bo'lib, chorak qismini bo'yang.
- d) uchinchi doirani 8 ta teng bo'lakka bo'lib, sakkizdan bir qismini bo'yang.

4. Amaliy ish. Doiraning oltidan bir qismini belgilash.



Ish rejasi.

- 1) Markazi  $O$  nuqta bo'lgan 4 cm radiusli aylana chizing.
- 2) Aylanada istalgan biror nuqtani belgilang. Shu nuqtadan sirkul yordamida aylanaga xuddi shunday radiusda kesishma yasang.
- 3)  $O$  markazdan shu 6 ta kesishmaga radiuslar o'tkazsangiz, 6 ta sektor hosil bo'ladi.
- 4) Bitta sektorni bo'yang.



5. Massasi 4 kg 400 g bo'lgan bayram torti 12 bo'lakka bo'lindi. Bayramda tortning 9 bo'lagi yeyilgan bo'lsa, necha gramm tort qoldi?



6. Hisoblang. "Beze" pishirig'ining yana qanday nomi borligini toping.

**G**  $740 \cdot 70$

**M**  $720\,464 : 8$

**E**  $5\,097 \cdot 6$

**N**  $155\,160 : 4$

**A**  $23 \cdot 380$

**R**  $1\,176\,000 : 80$

90 058	30 582	14 700	30 582	38 790	51 800	8 740
--------	--------	--------	--------	--------	--------	-------

## 93. Doiraning ulushlari



7. Katakchalarga sonlarni shunday qo'yingki, natijada to'g'ri tengliklar hosil bo'lsin. Har bir ustundagi misollarda qanday umumiylik bor? Qaysi tenglik uchun bir nechta yechim topish mumkin?

$$49 \cdot \square = 78 \cdot 49$$

$$493 + \square = 493$$

$$396 \cdot \square = 396$$

$$\square \cdot 35 = 83 \cdot \square$$

$$\square + 0 = 192$$

$$\square \cdot 1 = 632$$

$$6 \cdot \square = \square \cdot 6$$

$$\square + 0 = \square$$

$$1 \cdot \square = \square$$



8. Tort pishirish uchun sut, shakar, un kerak.



450 gramm



3 marta kam



Sut va un  
birgalikda qancha  
bo'lsa, shuncha

?



9. Ikkita stakan bilan ikkita ko'zaning massasi 14 ta likopchanning massasi bilan bir xil. Agar bitta ko'zaning massasi bitta stakan bilan bitta likopchanning massasiga teng bo'lsa, bitta ko'zaning massasi nechta likopchanning massasiga teng bo'ladi?



10. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bu yerda qaysi pishiriqning nomi yashiringan?

$$840 \cdot 40 + 963\,000 : (63\,700 : 70 - 10)$$

**A** 6 190

**I** 15 970

**L** 33 600

**E** 910

**E** 1 070

**K** 900

**R** 34 670



11. 36 ta pishiriq tayyorlash uchun 4 kg 320 g un kerak. 25 ta pishiriq tayyorlash uchun qancha un kerak bo'ladi? 40 ta pishiriqqa-chi? 120 ta pishiriqqa-chi?